

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining 2023 yil II yarim yillik HISOBOTI

№	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot
I. “O‘ZATOM” AGENTLIGINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORLARIGA MUVOFIQ VAZIFALARI			
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish			
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” nomli ma‘ruzalari doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2023-yil iyul - dekabr	Bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” nomli ma‘ruzalari doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat dasturlari va strategiyalarni amalga oshirish			
2	2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston-2030” strategiyasida keltirilgan vazifalar va topshiriqlarni amalga oshirish doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2023-yil iyul - dekabr	Bajarildi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida keltirilgan vazifalar va topshiriqlarni amalga oshirish doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “O‘zatom” agentligi 2024-yil uchun taklif qilinyotgan ustuvor vazifalar belgilanib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>agentligiga 2023-yil 13-noyabrdagi 01-08-719-son hamda 2023-yil 16-noyabrdagi 01-08-727-son xatlari bilan kiritilgan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2023-yil 11-martdagi 42-son bayoni ijrosini yuzasidan "O'zatom" agentligiga Dastur doirasida 700ta daraxtlar MTYAU MMFI Toshkent shahri filiali hududida Mirzo Ulug'bek tumani, Ulug'bek shaharchasi, Huroson ko'chasi 1-uyga Klyon – 200ta, Dub – 200ta, Kashtan – 200ta, Siren – 50ta, Pavloniya – 50ta Jami 700ta daraxt ekilib amalga oshirilgan ishlar yuzasidan kunlik (haftalik, oylik) ma'lumotlarni muntazam Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarish vazirligiga hamda Energetika vazirligiga taqdim qilinib "Yashil makon" umummilliy loyihasi platforamasiga joylandi. (2023-yil 7-dekabr 01-08-769-sonli xat)</p>
<p>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi "2019 – 2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4165-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</p>			
3	Yadroviy qurilmalarni maydonchada joylashtirishga ruxsat beruvchi hujjatni olish uchun Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi.</p> <p>"O'zatom" agentligi tomonidan yadroviy qurilmani maydonchada joylashtirishga ruxsat</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
	<p>tomonidan tartibga soluvchi maxsus vakolatli organga taqdim etadigan zarur hujjatlarni tayyorlash.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilning 28-martdagi 141-son qarori "Yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini joylashtirish uchun maydonchadan foydalanishga ruxsatnoma berish tartibi to'g'risidagi Nizomi"ga muvofiq hujjatlar to'plamini tayyorlash.</p>		<p>beruvchi hujjat olish uchun quyidagi hujjatlar ishlab chiqilgan:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. AESning atrof-muhitga ta'sirini baholash (1 bosqich maydon tanlash davrida) hisoboti; 2. Texnik xususiyati bo'lmagan rezyume; 3. Xavfsizlikni asoslash hisoboti (Kirish, 1- va 2-bob hajmida). <p>AES joylashgan hududning atrof-muhitga ta'sirini baholash, hisobotni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, ishlab chiqaruvchiga "AESning atrof-muhitga ta'siri prognozi" bo'yicha 2023-yil 13-aprel 02-04-299-sonli xat qaytadan yuborildi.</p>
4	<p>AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni rivojlantirish, shu jumladan uning tashkiliy tuzilishi jihatidan tayyorligi, malakali kadrlar bilan to'ldirilishi, zarur normativlar va tartib-tamoyillarining mavjudligi, uzoq muddat moliyaviy barqarorligini ta'minlash.</p>	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>Bangladesh Xalq Respublikasida qurilayotgan Ruppur AESda "O'zatom" agentligi va "AES qurilishi Direksiyasi" DUKning yosh mutaxassislari bosqichma-bosqich amaliyot o'tamoqda.</p> <p>Shuningdek, "AES qurilishi Direksiyasi" DUK mutaxassislari Bangladesh Respublikasida qurilayotgan "AES Ruppur"qurilishida amaliyot o'tab qaytgan mutaxassislar "O'zatom" agentligi va "AES qurilishi direksiyasi" DUKga ishga qabul qilindi.</p> <p>Quyidagi mavzular bo'yicha milliy seminarlarda qatnashdi va seminarni tashkil qilishda ishtirok etildi:</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>2023-yil 28-31-mart kunlari XAEAning “Yadro yoqilg'isi aylanishi va O‘zbekistonda uning axamiyati” mavzusidagi milliy seminar-praktikumi o‘tkazildi.</p> <p>2023-yil 7-11-avgust kunlari “Atom elektr stansiyalarida radiatsion monitoring va ish joylarini Radiatsion monitoring qilish tizimini loyihalash jihatlarini” mavzusida o‘quv-seminari o‘tkazildi.</p> <p>2023-yil 5-8-sentabr kunlari “Atom elektr stansiyasi va tashqi infratuzilmani qurishda xaridlar va tender tartiblari, boshqaruv metodologiyasi va xaridlarni tashkil etish” mavzusida milliy o‘quv-seminari o‘tkazildi;</p> <p>2023-yil 18-22-sentabr kunlari “Qaror qabul qiluvchilar va loyiha kompaniyasi uchun boshqaruv tizimi, atom elektr stansiyasini qurishdan oldin va qurilish vaqtida mulkdor-operatorning asosiy roli va majburiyatlari” mavzusida milliy o‘quv-seminari o‘tkazildi.</p>
5	AES va yadro infratuzilmasi uchun xodimlarni tayyorlash dasturlarini, shu jumladan xorijiy davlatlarda mutaxassislar malakasini oshirish dasturlariga muvofiq xodimlarni tayyorlash hamda malaka oshirish jarayonini tashkil etish.	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi.</p> <p>“O‘zatom” agentligi va “AES qurilishi Direksiyasi” DUKning 12 nafar xodimlari malakasini oshirish maqsadida Bangladesh Respublikasida qurilayotgan “Ruppur” AESining qurilish maydonchasiga mehnat safariga yuborilgan xodimlarning 8 nafari muvaffaqiyatli yakunlab keldi hamda 7 nafari “O‘zatom” agentligiga 1 nafari “AES qurilishi</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>Direksiyasi” DUKga mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirildi.</p> <p>Qolgan 4 nafari mehnat fa'oliyatini davom ettirmoqda.</p> <p>“Atomstroyeksport” aksiyadorlik jamiyati bilan Misr va Vengriyada qurilayotgan AESlarga malaka oshirish uchun mutaxassislar yuborish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.</p>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4492-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar			
6	<p>“MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialini Rossiyaning Ta'lim va fan sohasida nazorat bo'yicha federal xizmati (Rosobrnadzor) tomonidan akkreditatsiyaga tayyorgarlik qilish.</p>	2023-yil iyul - avgust	<p>Bajarildi.</p> <p>“MMFI” Milliy tadqiqot yadro universiteti” Toshkent shahridagi filiali ijrochi direktori Sh.Abdukamilov bosh universitet rahbariyati bilan doimiy muzokaralar o'tkazib kelmoqda. Jumladan, filialni akkreditatsiya masalalari ham muhokama qilinmoqda. Hozirda Rossiya Federatsiyasida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazishga oid hujjatlarga o'zgartirish kiritilayotgani munosabati bilan akkreditatsiya jarayoni 2022/2023 o'quv yilining III choragida o'tkazildi.</p>
7	<p>“O'zatom” agentligi tayanch oliy ta'lim muassasalari konsorsiumi ta'lim va ilmiy muassasalari moddiy-texnika va o'quv-laboratoriya</p>	Doimiy ravishda	<p>Bajarildi.</p> <p>“O'zatom” agentligi tomonidan MMFI MTYAU Toshkent shahridagi filiali uchun</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
	bazasini yaratish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.		2-3-4 bosqich talabalari uchun 13 ta (“Kimyo”, “Mexanika”, “Molekulyar fizika va termodinamika”, “Elektr va magnitizm”, “To'lqinlar va optika”, “Atom fizikasi”, “Avtomatika”, “Issiqlik fizikasi”, “Elektroenergetika”, “Virtual reallik”, “Atom elektr stansiyalarida fizik jarayonlarni modellashtirish”, “Kuch fizikasi”, “Elektrotexnika”) eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va jihozlari xarid qilindi.
8	“MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialiga 2023-2024-o'quv yili uchun qabul jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2023-yil iyul - sentabr	<p>Bajarildi.</p> <p>Toshkent shahridagi “MMFI” Milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi Vasiylik kengashining 2023-yil 17-iyuldagi yig'ilishida “2023/2024-o'quv yili uchun “MMFI” Milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining Toshkent shahridagi filialiga o'qishga qabul qilish to'g'risida” kun tartibida ko'rib chiqildi va 31-1-son Bayonnomasiga muvofiq yo'nalishlar bo'yicha qabul parametrlari belgilab berildi.</p> <p>2023-yilning 24, 26, 28-iyul kunlari Fizika, Matematika va Rus tili fanlaridan imtihonlar o'tkazilib tanlov yakuniy natijalariga ko'ra 100 nafar abituriyent 4 ta yo'nalish bo'yicha talaba sifatida o'qishga qabul qilindi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
9	Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining filiali faoliyatini rivojlantirish.	Doimiy ravishda	<p>Bajarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasi uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 14-iyuldagi PQ-319-son qarorida Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining filiali va "Navoiyuran" DK kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilish belgilangan. Ushbu soha bo'yicha kadrlar tayyorlash maqsadida filialda yangi ta'lim yo'nalishi ochish bo'yicha "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti bosh muassasasi bilan muzokaralar o'tkazib kelinmoqda. Undan tashqari filialda magistratura bosqichini ochish bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda.</p>
<p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi "2022 - 2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasi uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-319-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</p>			
10	Rossiya Federatsiyasining "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetida atom energetikasi va yadro texnologiyalari sohasida ta'lim olib qaytgan yoshlarni "Navoiyuran" davlat korxonasi ishga joylashtirish.	2023-yil iyul - sentabr	<p>Bajarildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 159-son Bayoniga asosan, Rossiya Federatsiyasining "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetida tahsil olib qaytgan 4 nafar</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			bitiruvchilar "Navoiyuran" davlat korxonasi uchun ishga taqsimlandi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar			
11	Iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalar asosida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish doirasida 2024 yil uchun 8 ta loyihani kelishishga tayyorlash.	2023-yil iyul - dekabr	Bajarildi. "O'zatom" agentligining 2024-yilga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha "YO'L XARITASI" Agentlikning 2023-yil 4-iyuldagi 01-05-388-son xati orqali kelishish uchun yuborildi va kelishildi.
II. "O'ZATOM" AGENTLIGINING USTUVOR VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR			
1. Atom energetikasi sohasida normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish			
12	O'zbekiston Respublikasi yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shilgandan keyin ularning qoidalarini O'zbekiston Respublikasi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga implementatsiya qilish.	2023-yil iyul - dekabr (xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan holda)	Bajarilmoqda. Xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi hukumatining tegishli qarori qabul qilinmaganligi sababli yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shilgandan keyin ularning qoidalarini "O'zatom" agentligi O'zbekiston Respublikasi qonun va boshqa 46ta normativ-huquqiy hujjatlariga implementatsiya qilish rejalashtirilgan. "Yadroviy zarar uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risidagi Vena konvensiyasiga

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>qo'shilish to'g'risida (Vena, 1963-yil 21-may)" O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Energetika vazirligining 2019-yil 28-avgustdagi 2-2516-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan va o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Huquqiy ekspertiza va kompleks tahlil qilish departamentiga (2019-yil 16-noyabr) kiritilgan.</p> <p>Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan Yadro avariyasi to'g'risida tezkor xabar berish to'g'risidagi konvensiyasi (30.01.2020-y. dagi 01/03-296 son xat) va Yadro xavfsizligi to'g'risidagi konvensiyasiga (28.02.2020-y. dagi 01/03-678-son xat) qo'shilishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qarorlari loyihalari o'rnatilgan tartibda ishlab chiqildi, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishildi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining "Yadro avariylari yoki radiatsiya avariya holatlarida yordam ko'rsatish to'g'risida"gi konvensiyasiga qo'shilishi bo'yicha Energetika vazirligining 2020-yil 25-dekabrda 01-16-7156-son va 2020-yil 25-dekabrda 01-16-7157-son xatlariga muvofiq tegishli hujjatlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashiga kiritildi.</p> <p>Tashqi ishlar vazirligiga 2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning I-bandida xalqaro konvensiyalarga qushilish to'g'risida qilingan ishlar haqida ma'lumot berildi (2022-yil 16-iyundagi 03-08-332-son xati).</p> <p>Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarda foydalanish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar bazani yaratish va rivojlantirish maqsadida ushbu yo'nalishlarda keyingi harakatlar bo'yicha ko'rsatmalar olish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga 2023-yil 28-sentabr 01-05-2-5795-son xati kiritildi.</p>
13	Tasdiqlangan "O'zatom" agentligida 2023-yilda normativ hujjatlarni ishlab chiqish dasturi" doirasida o'rnatilgan tartibda 8-ta normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi.</p> <p>"O'zatom" agentligida 2023 yilda normativ hujjatlarni ishlab chiqish dasturi" doirasida informatsion xavfsizlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mehnat nizolari bo'yicha komissiya va boshqa tashkiliy talablarni belgilash bo'yicha 8-ta normativ hujjatlar ishlab chiqildi, qabul qilindi va amalga kiritildi:</p> <p>UzAtom TS 11120-6.024:2023 "O'zatom" agentligida stajirovka o'tish to'g'risida to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan;</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>UzAtom 08-039:2023 “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi xuzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha bolang‘ich tashkiloti to‘g‘risidagi Nizomi” tasdiqlangan;</p> <p>UzAtom 08-001:2018 “O‘zatom” agentligining tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni ishlab chiqish, ro‘yxatdan o‘tkazish, tasdiqlash va boshqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi” ko‘rib chiqilmoqda;</p> <p>UzAtom 10-014:2023 Ichki mehnat qoidalari to‘g‘risidagi Nizomi” tasdiqlangan;</p> <p>UzAtom 10-024:2019 “O‘zatom” agentligi tarkibiy bo‘linmalari va quyi tashkilotlari mansabdor shaxslari va xodimlarning xizmat safarlari to‘g‘risidagi Nizomi” ko‘rib chiqilmoqda;</p> <p>Yuqoridig'lardan tashqari, “O‘zatom” agentligida 2023-yilda 10ta “Lavozim yo‘riqnoma”lari qayta ko‘rib chiqilib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan.</p>
2. AES qurilishi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar			
14	AESning atrof-muhitga ta’sirini baholash hisoboti bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududlarida jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish dasturiga muvofiq ishlarini tashkil etish.	Belgilangan jadvalga muvofiq	<p>Bajarildi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Forish tumanida qurilishi va ekspluatatsiya qilinishi rejalashtirilgan atom elektr stansiyasining atrof muhitga ta’sirini baholash loyihasini (1-bosqich, AES joylashtirish uchun maydon tanlash) jamoatchilik eshituvini</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.</p> <p>Yuqorida qayd etilgan atrof-muhitga ta'sirini baholash (OVOS)ning 5-bob "Joylashgan hududdagi atrof-muhitga AES ta'siri prognozi" va 10-bob "Transchegaraviy ta'sir"ni ishlab chiquvchi bilan atrof-muhitni hisobga olgan holda prognozni hisoblash usullarini aniqlashtirish nuqtayi nazaridan ta'sir etuvchi omillar muhokama qilindi. Ishlab chiqilgan materiallar bo'yicha sharhlar atrof-muhitga ta'sirini baholash materiallarini ishlab chiquvchiga yuborildi.</p>
15	<p>AESning atrof-muhitga ta'sirini baholash hisobotini (maydoncha tanlash bosqichida) Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha alohida vakolatga ega bo'lgan davlat organiga ekspertizadan o'tkazish uchun o'rnatilgan tartibda taqdim etish.</p>	<p>2023-yil iyul - dekabr (kelishilgan holda)</p>	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>AESning atrof-muhitga ta'sirini baholash (1 bosqich maydon tanlash davrida) hisoboti ishlab chiqilib, 2020-yil 3-fevral kuni Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha alohida vakolatga ega bo'lgan davlat organida (Ekologiya va atrof muxitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi) davlat ekspertizasidan o'tkazish kiritildi.</p> <p>O'zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish masalalari bo'yicha respublika ishchi guruhining 2020-yil 26-dekabrda 5 son bayoni (2021-yil 22-yanvardagi 01-06/24-37-son) topshiriqlari asosida atrof-muhitga ta'sirini baholash (1 bosqich maydon tanlash davrida)</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>hisoboti qayta tayyorlandi va 2021-yil 8-fevralda ekspertiza xulosasini olish uchun taqdim qilindi.</p> <p>Ayni vaqtda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ushbu hujjatni ekspertizadan o'tkazish maqsadida xalqaro ekspertlarni tanlash bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda. Belgilangan tartibda mustaqil xorijiy ekspert tanlangandan so'ng, "O'zatom" agentligi tomonidan zarur moliyaviy mablag' Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisobiga o'tkazib beriladi.</p> <p>Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan ekspertizadan o'tkazish jamoatchilik eshittiruvlaridan so'ng AESning atrof-muhitga ta'sirini baholash hisobotining yakuniy tahriri shakllantirilgandan so'ng amalga oshiriladi.</p>
3. Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bilan hamkorlik va o'zaro aloqalar			
16	2022-2023-yillarda XAEA tomonidan tasdiqlangan texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o'tkazish.	Belgilangan jadvalga muvofiq	<p>Bajarildi.</p> <p>2022-2023-yillarda XAEA tomonidan tasdiqlangan texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o'tkazish masalasi bo'yicha XAEAning tegishli xodimlari bilan onlayn uchrashuvlar muntazam ravishda o'tkazib borilmoqda.</p> <p>Jumladan, Joriy yilning 12-15-sentyabr kunlari XAEAning "Moliyaviy xavflarni</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>baholash va boshqarish, atom elektrostansiyalarini qurish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish” hamda “AES qurilishini moliyalashtirish modellari, shu jumladan muqobil moliyalashtirish manbalari, xalqaro moliya institutlarining investitsiyalar va grantlarini jalb qilish” mavzusidagi milliy seminar-praktikumi;</p> <p>XAEA hamda “O‘zatom” agentligi o‘rtasidagi kelishuvga asosan, 2022-yil 30-oktyabr - 4-noyabr kunlari XAEAning “AES qurilishi va ekspluatatsiyasini rejalashtirish va byudjetlashtirish manbai” mavzusidagi milliy seminar-praktikum;</p> <p>2023-yil 28-31-mart kunlari XAEAning “Yadro yoqilg‘isi aylanishi va O‘zbekistonda uning axamiyati” mavzusidagi milliy seminar-praktikumi o‘tkazildi.</p> <p>2023-yil 7-11-avgust kunlari “Atom elektr stansiyalarida radiatsion monitoring va ish joylarini Radiatsion monitoring qilish tizimini loyihalash jihatlari” mavzusida o‘quv-seminari o‘tkazildi.</p> <p>2023-yil 5-8-sentabr kunlari “Atom elektr stansiyasi va tashqi infratuzilmani qurishda xaridlar va tender tartiblari, boshqaruv metodologiyasi va xaridlarni tashkil etish” mavzusida milliy o‘quv-seminari o‘tkazildi.</p> <p>2023-yil 18-22-sentabr kunlari “Qaror qabul qiluvchilar va loyiha kompaniyasi uchun</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			boshqaruv tizimi, atom elektr stansiyasini qurishdan oldin va qurilish vaqtida mulkdor-operatorning asosiy roli va majburiyatlari” mavzusida milliy o‘quv-seminari o‘tkazildi.
17	Respublikaning milliy yadroviy infratuzilmasini rivojlanishini kompleks baholash bo'yicha hisobotiga oid “Ish reja”larini (Integrated Work Plan/Action plan) ishlab chiqish va XAEA bilan birga kelishish.	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi. Respublikaning milliy yadroviy infratuzilmasini rivojlanishini kompleks baholash davra suxbati davomida XAEA yadro infratuzilmasini rivolantirish bo‘limi ekspertlari bilan hamkorlikda rejalashtirish hujjati – Integratsiyalashgan ish rejasini (IWP/Ap) birgalikda ishlab chiqishga erishildi.</p> <p>Ikkinchi faza uchun INIR-missiyasi natijalari bo'yicha XAEA ekspertlari tomonidan ma'qullangan 2022-2024-yillar uchun Kompleks ish reja (Integrated Work Plan) ni amalga oshirish to'g'ricda “O‘zatom” agentligining 17.02.2023 1-sonli Bayoniga muvofiq XAEA ekspertlari bilan ishlash uchun tegishli mas'ul mutaxassislarga topshiriqlar taqsimlab berildi va tadbirlar o‘tkazish jadvali ishlab chiqildi.</p>
18	XAEA Bosh konferensiyasining navbatdagi 67-sessiyasida ishtirok etishga tayyorgarlik.	2023-yil 25-29 - sentabr	<p>Bajarildi. Shu yilning avgust oyida O‘zbekiston delegatsiyasining Vena shahriga (Avstriya Respublikasi) tashrifini tashkil etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>XAEA Bosh konferensiyasining navbatdagi 67-sessiyasi ishida ishtirok etish. O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining dastlabki tarkibi shakllantirildi, instansiyaga tegishli eslatmalar loyihalari tayyorlandi.</p> <p>(O'zbekiston delegatsiyasini yuborish va XAEA Bosh konferensiyasining so'nggi sessiyasida ishtirok etish uchun) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishi loyihasi ishlab chiqildi, ishtirokchilar ro'yxat shakllantirildi, uchrashuvlarning mumkin bo'lgan senariylari va uchrashuv vaqtlari belgilandi. Shuningdek, tashrif doirasida XAEA ekspertlar guruhi, "O'zatom" agentligi va Konchilik, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi vakillari o'rtasida amaldagi kelishuvlar ijrosini muhokama qilish va tushuntirish maqsadida ikki tomonlama uchrashuvlar va maslahatlashuvlar o'tkazildi va kelgusidagi rejalar kelishib olindi.</p>
4. "O'zatom" agentligi infratuzilmasini rivojlantirish.			
19	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik tizimini rivojlantirish doirasida korxonada xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash.	2023-yil noyabr	<p>Bajarildi.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish tizimi yaratilib, favqulodda vaziyatlar va yong'inlarni bartaraf etish bo'yicha yong'in xavfsizligi chizmasi ishlab chiqildi va tegishli joylar o'rnatildi hamda o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			“O‘zatom” agentligi binosining issiq suv tizmi quvurlari yangilandi
5. Atom texnologiyalari axborot markazini rivojlantirish va atom energetikasini ommalashtirish			
20	Aholining yadro fani va texnologiyalari sohasidagi ilmiy-texnik bilimlarini oshirish va atom energetikasini ommalashtirish.	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi.</p> <p>Atom energetikasini ommalashtirish va talabalar, maktab o‘quvchilarining ilmiy-texnik bilimlarini oshirish maqsadida ATAMda quyidagi tadbirlar o‘tkazildi:</p> <p>1) Joriy yilning 13-mart kuni Atom texnologiyalari axborot markazida “Ilm-fan va texnologiyalar uzra” loyihasi doirasida MYaTU MMFI (Milliy yadro tadqiqotlari universiteti – Moskva muhandislik fizikasi instituti) Toshkent filiali talabalari tomonidan tayyorlangan - “Vodorod: uning xususiyatlari va insoniyat uchun istiqbollari” ma‘ruzasi Toshkentdagi Cambridge xalqaro CIS maktabi o‘quvchilari uchun tashkil etildi;</p> <p>2) 7-aprel kuni Atom texnologiyalari axborot markazida Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Belaruslik ekspertlar hamda ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari va kollejlarning 150 nafardan ziyod talabasi ishtirokida “Mamlakat uchun atom” mavzusidagi xalqaro teleko‘prik o‘tkazildi;</p> <p>3) 11-may kuni “O‘zatom” agentligi rahbariyati bilan MYaTU MMFI Toshkent filiali 3 va 4-kurs talabalari o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi;</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			4) Joriy yilning 19-iyun kuni barcha maktab o'quvchilari uchun navbatdagi "Atom sinovi №11" onlayn viktorinasi o'zbek tilida bo'lib o'tdi.
21	"O'zatom" agentligi Atom texnologiyalari axborot markazi (ATAM)da muntazam ravishda o'tkaziladigan ekskursiyalar, uchrashuvlar, va ochiq ma'ruzalar tadbirlari o'tkazish.	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi:</p> <p>1. Atom energetikasini ommalashtirish va talabalar, maktab o'quvchilarining ilmiy-texnik bilimlarini oshirish maqsadida ATAMda quyidagi tadbirlar o'tkazildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Obninsk New 2023 xalqaro yoshlar yadro forumi - "Zakovat formulasi" xalqaro chempionati - Global Atomic Quiz 2023 atom mavzusidagi xalqaro viktorina - Atom va fan festivali <p>2. Bundan tashqari, talabalar, maktab o'quvchilari va Respublikamizning boshqa soha vakillari uchun Atom texnologiyalari axborot markazi bo'ylab qo'yidagi ekskursiyalar amalga oshirildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - NTM "Dream school" maktabi o'quvchilari; - Toshkent shahar Cambridge xalqaro CIS maktabi o'quvchilari; - Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti filiali talabalari; - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabalari; - Toshkent shahar Yunusobod tumani 88-sonli o'rta maktab o'quvchilari;

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<ul style="list-style-type: none"> - NTM "Humo school" maktabi o'quvchilari; - NTM "Eureka Education" maktabi o'quvchilari; - Toshkent shahridagi "MEI" milliy tadqiqot universiteti" filiali; - O'zbekiston Respublikasi akademiyasi umumqo'shin qo'mondonlik fakulteti talabalari - Turin politexnika universiteti qoshidagi akademik litsey talabalari; - NTM "Lider" maktabi o'quvchilari; - Toshkent shahar Shayxontohur tumani 180-sonli o'rta maktab o'quvchilari - Toshkent shahridagi Amiti universiteti talabalari - Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 321-umumta'lim maktabi o'quvchilari - Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 328-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari - Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-umumta'lim maktabi o'quvchilari - Andijon shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur Universal Academy xususiy maktab o'quvchilari - Webster Universiteti talabalari.
22	<p>"O'zatom" agentligi kanallarini yoritish, ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda ish olib borish. Shuningdek, www.uzatom.uz rasmiy veb-saytni yangilash ustida ishlash</p>	Doimiy ravishda	<p>Bajarildi: Energetika vazirligining sovuq kunlarda gaz va elektr energiyasiga bo'lgan talabning oshishi, ularni yetkazib berishda yuzaga</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>keladigan va shu munosabat bilan amalga oshirilayotgan muammolar to'g'risidagi murojaati haqida xabar e'lon qilindi;</p> <p>Shuningdek, "Atom talabalari vodorod va uning energetika sohasidagi istiqbollari haqida gapirdi" kabi tadbirlar, uchrashuvlar va yangiliklar nashr etib boriladi;</p> <p>“Bahor va yangilanishning yorqin bayrami arafasida MEPhI NRNU Toshkent shahar filialida “Navro‘z olami” sayli bo‘lib o‘tdi;</p> <p>“Qirg‘iziston Energetika vaziri va Qozog‘iston vazir o‘rinbosari boshchiligidagi delegatsiya Atom texnologiyalari axborot markaziga tashrif buyurishdi”;</p> <p>“Xalqaro teleko‘prik ekspertlar va talabalarni qizg‘in fikr-mulohazalarga undadi”;</p> <p>“O‘zbekistonning tinch atomi”;</p> <p>“9 - may — Xotira va qadrlash kuni doirasida “O‘zatom” agentligi hamda “AES qurilishi direksiyasi” DUKning bir guruh xodimlari mehnat faxriylari xonadonlariga tashrif buyurishdi;</p> <p>“2023-yil 18-20-may kunlari Toshkent shahrida O‘zbekiston Ikkinchi xalqaro energetika forumi bo‘lib o‘tadi”;</p> <p>O‘zatom agentligi rahbariyati MMFI MTYaU Toshkent filiali 3 va 4-kurs talabalari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi;</p> <p>O‘zatom agentligi “O‘zbekiston neft va gazi — #OGU 2023” 25-yubiley Xalqaro</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>ko'rgazmasi va "Energetika, energiya tejash, muqobil energiya manbalari - #Power Uzbekistan 2023" 16-Xalqaro ko'rgazmasida o'z taqdimoti bilan ishtirok etdi;</p> <p>"MMFI MTYaU talabalari "O'zatom" agentligi bosh direktorining nominal stipendiyasi sohiblari bo'ldi";</p> <p>"9 iyul kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ovoz berish haqida videorolik";</p> <p>"Atom energetikasi sohasida tahsil olgan ilk bitiruvchilarga diplomlar topshirildi";</p> <p>"O'zatom" agentligi haqidagi yangiliklar, tadbirlar va videoroliklar yoritilib borildi;</p> <p>- MMFI MTYaU Toshkent filiali talabalari "O'zatom" agentligi direktorining nominal stipendiyasi sohiblari bo'ldi;</p> <p>- "9 iyul kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ovoz berish haqida videorolik";</p> <p>- Obninsk New 2023 xalqaro yoshlar yadro forumi;</p> <p>- Atom energetikasi sohasida tahsil olgan ilk bitiruvchilarga diplomlar topshirildi;</p> <p>- "Xon Atlasi-2023" milliy festivali;</p> <p>- O'zligimiz timsoli - ona tilim;</p> <p>- Namangan viloyatining maktab o'quvchilari jamoasi O'zbekiston jamoalari o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat formulasi"</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>xalqaro chempionatida eng yaxshi natijaga erishdi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Global Atomic Quiz 2023 loyihasi; - “O'zatom” agentligi, "AES qurilishi direksiyasi" DUK xodimlari va Milliy yadro tadqiqotlari universiteti MMFI Toshkent filiali talabalari ishtirokida “Bir bayroq ostida birlashamiz!” mavzusida chellenj tashkil etildi; - Muqaddasdir Vatan bayrog'i! nomli videolavha; <p>“Atom sinovi #11” viktorinasini o'tkazish haqidagi post hamda nashrlar, e'lonlar, yangiliklar va boshqalar ham joylashtirildi.</p>
6. Raqamli transformatsiya, axborot va jismoniy xavfsizlikni ta'minlash			
23	“O'zatom” agentligining ichki ma'lumotlarini elektron shaklga o'tkazish va yagona ma'lumot bazasini rivojlantirish.	2023-yil iyul - dekabr	<p>Bajarildi.</p> <p>“O'zatom” agentligining Standartlashtirish va normativ hujjatlarni ishlab chiqish boshqarmasi tomonidan O'zatom agentligining ichki me'yoriy hujjatlari elektron shaklga o'tkazildi va fayl serveridagi yagona ma'lumotlar bazasida 4ta joylashtirildi.</p> <p>Hamda, ijro intizomini nazorat qilish bo'limi tomonidan buyruqlar va xizmat xatlarning elektron shakli ma'lumotlar bazasida joylashtirilgan.</p> <p>Shu bilan birga, tadbirlar natijalari bo'yicha fotosuratlar va hisobotlar bunga bag'ishlangan elektron ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			Bundan tashqari, "O'zatom" agentligi doirasida ichki hujjat aylanishi uchun server ajratildi.
7. Korrupsiyaga qarshi kurashish			
24	Xalqaro standarti ISO 37001:2016 "Poraxo'rlikka qarshi boshqaruv tizimlari. Talablar va foydalanish bo'yicha qo'llanma" talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish.	2023-yil iyul - dekabr	Bajarildi. Korrupsion risk past darajada bo'lganligi hamda AES qurilishi aktiv fazada emasligi sababli Xalqaro standarti ISO 37001:2016 "Poraxo'rlikka qarshi boshqaruv tizimlari. Talablar va foydalanish bo'yicha qo'llanma" talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish AES qurilishi loyihasi boshlangandan so'ng amalga oshirilishi rejalashtirilgan.
25	Agentlik tizimida korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan "O'zatom" agentligi tomonidan xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish uchun axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va o'quv seminarlarni o'tkazish.	2023-yil iyul - dekabr	Bajarildi. Joriy yilning 1-iyul kuni "O'zatom" agentligida "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining mazmun-mohiyati" mavzusida agentlik hodimlari korrupsiyaga qarshi kurash siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurroq tushunishlari uchun seminar-yig'ilish o'tkazildi. 9-dekabr "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni" munosabati bilan "O'zatom"

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			agentligi tomonidan xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida axborot-tahliliy materiallar tayyorlandi va o'quv seminari o'tkazildi.
8. Umumiy masalalar			
26	<p>“O‘zatom” agentligining tarkibiy bo‘linmalari va quyi tashkilotlar rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi” Nizom UzAtom Ts 11120-6.016:2022 asosida 2023-yil II choragi yakuni bilan faoliyat ko‘rsatkichlarining amalda bajarilishi va 2023-yil IV choragi uchun faoliyat samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida bayonama tuzish.</p>	2023-yil iyul - sentabr	<p>Bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligiga “O‘zatom” agentligining 02-08-178, 01-08-372 son xatlari bilan Agentligining rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha 2023-yil I, II va III choragi yakuni bilan faoliyat ko‘rsatkichlarining amalda bajarilishi va 2023-yil II, III va IV choragi uchun faoliyat samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida 16-2-3-bayonamalari ilova ko‘rinishida taqdim etilgan. “O‘zatom” agentligi xodimlarining faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash va oylik rag‘batlantiruvchi ustamalarni hisoblash metodikasi” (KPI) ishlab chiqilgan va direktorga taqdim qilingan.</p>
27	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan har juma kuni o‘tkaziladigan siyosiy-ma’rifiy o‘quv soatida ishtirok etish.	Har hafta	<p>Bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan har haftaning juma kuni</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			Respublika ichki va tashqi siyosiy hayotidagi dolzarb voqealarga bag'ishlangan siyosiy-ma'rifiy o'quv soatlarida qatnashadi. O'zbekistonning (YouTube videoxosting platformasida).
9. Ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha yagona va uzluksiz "texnologik zanjir"ni amalga oshirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash			
28	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlar ijrosini "app.ijro.uz" yagona elektron tizimi orqali nazorat qilib borish va ma'lumotlarni kiritish.	Doimiy	<p>Bajarildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlar ijrosini "me.ijro.uz" va "app.ijro.uz" yagona elektron tizimi orqali nazorat qilib borilmoqda va doimiy ravishda ma'lumotlar kiritilmoqda.</p> <p>2023-yilda "O'zatom" agentligiga 1619ta kiruvchi yozishmalarni qabul qildi, shundan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Xavfsizlik Kengashi, - Oliy Majlis Senatining 8 ta topshirig'i; - Vazirlar Mahkamasining 58 ta ko'rsatmasi; - Energetika vazirligining 683 ta topshiriq; <p>Respublika vazirliklari va idoralaridan 870 ta xat;</p> <p>2023-yilda "O'zatom" agentligida 781ta chiquvchi xatlar ro'yxatga olingan.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
29	O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari tegishliligi bo'yicha bajarilishining natijalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va Energetika vazirligiga ma'lumot berish.	Doimiy	<p>Bajarildi.</p> <p>Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari tegishliligi bo'yicha bajarilishining natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga yuborildi.</p>
30	Agentlikda jismoniy va yuridik shaxslarni yoki ularning vakillarini qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, har bir murojaatga to'liq javob xatlari berilishini nazorat qilish.	Doimiy	<p>Bajarildi.</p> <p>2023-yilda "O'zatom" agentligiga umumiy 27ta murojaatlar bo'lib shundan: 5ta yuridik shaxslar, 22ta jismoniy shaxslardan kelib tushgan, ular belgilangan tartibda ko'rib chiqilib javob xatlari yuborilgan.</p> <p>Hisobot davrida agentlikda jismoniy va yuridik shaxslarni yoki ularning vakillarini qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, har bir murojaatga to'liq javob xatlari berilishining nazorati bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga taqdim etildi.</p>